

MUQUMIY HAYOTI VA IJODIGA NAZAR

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mamayusupova Shahina Ulug’bek qizi
Tel: +998993032770
shahinamamayusupova28@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Aminxo’ja Muqimiyning hayoti va ijodi haqida ta’riflar keltirilgan. Hayot tarzi va ijodi yo’lidagi haqiqatlar, uning atrofdagilarga munosabati ilmni qay darajada qadrlagani haqida. O’zi yashagan davrning ijtimoiy-iqtisodiy avoli. Aholining adolat darajasi haqida tanobchilar asaridan parchalar keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Ijod, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, tanob, adolat, ma’rifat, ilm, bilim, hurmat, shijoat.

Bolalikdan onasi tomonidan she’riyatga qiziqtirib kelgan Muqimiyl asl ismi Muhammad Aminxo’ja Muqimiyl Mirzaxo’ja o’g’li 1850-yil 1-may kuni Qo’qon shahrida tavallud topgan. Muqimiyl garchi nonvoyslar oilasida dunyoga kelgan bo’lsada, she’riyatga adabiyotga qiziqishi yuqori bo’lgan. Uning deyarli barcha asarlari realizm ya’ni haqiqiylikka asoslangan hisoblanadi. Muqimiyning onasi Oyshabibi ajoyib ta’limga ega, og‘zaki ijodni juda yaxshi bilgan iqtidorli shoira bo’lgan. Aynan shu ayol tufayli Muqimiyyda shoirona iqtidor rivojlanadi, ayol o‘g’lini Alisher Navoiy, Hofiz Jomiy kabi ijodkorlar qiyofasida sharq mumtoz adabiyoti bilan tanishtiradi va umrining oxiriga qadar ularga bo’lgan muhabbati saqlanib qoladi. O‘zining birinchi she’rini o’n yoshida yozadi.¹ Muqimiyning onasiga bo’lgan mehri cheksiz bo’lgan va 1865 yil Muqimiya ma’nan va minnatsiz ko‘mak berib turuvchi onasi dunyonni tark etdi. Natijada, Muqimiyning she’rlarida erta hayotdan ko‘z yumgan onasiga nisbatan motam soyasi seziladi. Yoshligidan she’riyatga qiziqishi ulkan bo’lganligi sababli, u ijod yo’lini tanlaydi.

Shuningdek, xalqning yashash tarzi, ularga bo’lgan adolat to’g’risida asar va she’rlar yozgan. Uning deyarli barcha asarlari adolat to’g’ri yo’lga boshlash yo’lida bo’lgan. Otasining o’limidan so‘ng Muqimiyning qaramog‘ida qolgan oilasiga yordam berish uchun Toshkentga ko‘chib o’tishga majbur bo’ladi. Shoirning Toshkentdagagi qisqa muddati u uchun foydali, barakali tus olib, uning dunyoqarashi kegayishiga, qat’iyat va muahoratining mukammallashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Yangiliklarga, jasurligi va asarlarining o‘zi xosligi qaramay, ularni hech kim chop etmaydi va Muqimiyning yashash uchun hech qanday vositasi qolmaydi. Shu sababli, u otasining

¹ <https://arboblar.uz/uz/people/mukimi>

uyini sotib, madrasadagi kichik keleda o‘g‘li Akbarxo‘ja bilan yashashga majbur bo‘ladi. Aynan o‘sha yerda, madrasadagi keleda u shoir ismini abadiylashtirgan ajoyib asarlarini yaratdi²

O‘zbek adabiyotida demokratik yo‘nalishning vujudga kelishi va shakllanishi Muqimiy nomi bilan bog‘liq. U boshliq Furqat, Zavqiy, Avaz, Komil kabi ilg‘or fikrli shoirlar o‘zbek adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdilar. Muqimiy lirkasi chuqr optimizm bilan sug‘orilgan, hayotiylik ushbu lirikaning asosiy va yetakchi xususiyatlardan. Muqimiy real muhabbatni, insonni kuylagan. She’rlarining tub mohiyatini inson kechinmalari, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari tashkil etgan. Ularda do‘stlik, sadoqat, samimiyat vafodorlik, sabot va matonat ulug‘langan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan. Adolatli va baxtli zamonni orzu qilgan, shunday kunlar kelishiga ishongan („Kelur oxir seni ham yo‘qlag‘udek bir zamon yaxshi“ va boshqalar). Hasrat, shikoyat, norozilik motivlari mavjud bo‘lgan she’rlarida ham kelajakka ishonch, farovon hayot haqidagi orzu-ideallari aks etgan.³

„Kelur oxir seni ham yo‘qlagudek bir zamon yaxshi“ ushbu parchadan shuni anglash mumkinki, u kelajak uchun umid ila ijod qilgan. Va kelajakda Muqimiyning hayoti va ijodini avlodlari o’rganishiga, tahlil qilishiga ishongan.

Muqimiy 1864-1865 yillarda Qo‘qondagi Nodira bino qildirgan,,Moxlar oyim“ madrasasida” so‘ng Buxoro madrasalaridan birida 1875-1876 yillar mobaynida ta’lim olgan. 1876-yilda Qo‘qonga qaytgach, yer qurilishi mahkamasida mirzalik qilgan.Uning faoliyati vaqtida amaldorlarning qallobliklarini befarq kuzata olmasdan „Tanobchilar“ satirasini yozgan Agarda gap „tanobchilar“ asari haqida ketadigan bo’lsa, Muqimiy o‘sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini ko’rsatib bergen. Ushbu satira orqali yer o‘lchashdagi g’irromliklaru- ayyorliklarni o‘z ijodida na’muna etgan. Bundan ko’rinib turibdiki, o‘sha davrda hokim va uning amaldorlariga yaqin kimsalargina va shu g’irromlikka sherik bo‘la olganlargina foyda ko’rgan. Ammo adolatli halol aholi ya’ni dehqonlar aldanib tanob solig’ini to’lashgan.

Shoir tomonidan turli janrdagi 100 dan ziyod she’rlar yaratilgan. Asosan satiralar yozgan. Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy, shuningdek, 30 ga yaqin hajviy asarlar yaratgan. Ulardan eng mashhurlari: “Ot haqida”, “Loy haqida”, “Arava haqida”. Satira kabi, Muqimiyning hajviy qarashlari ulkan ijtimoiy va badiiy qadrga ega bo‘lgan. Muqimiy “Yuragida haqqoniy inson meni tushunadi” deb yozgan. Darhaqiqat, asar va satiralariga nazar soladigan bo’lsak, adolat va chin insoniylik to’g’risida hisoblanadi. Muqimiy hayot yo’li odmi va kamtarin bo‘lgan. Ilmni juda hurmat qilgan kishi sifatida ta’riflanadi.

² <https://arboblar.uz/uz/people/mukimi>

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqimiy>

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy asli qoqonlik bo'lsada Toshentga ko'p safar qilganlar. Uning ijodining asosiy mahsullari she'r va satiralardan iboratdir.

Muqimiy asarlari tahriri natijasida shoir asarlari nashrlarida ko'plab matniy tafovutlar yuzaga kelgan. Bu esa asar talqiniga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Muqimiyning "Sayohatnama" asari o'z mohiyatidan uzoqlashtirilib talqin etilganligi, "Hajvi Bektur", "Darig'o mulkimiz" hajviy asarlari matni tahrir qilinib, joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan bandlari yangicha mulohaza yuritish, muhim umumlashma xulosalar chiqarish imkonini beradi. Misralari qayta yozilgan "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytkon she'ridur" sarlavhali she'ri kabi asarlar Muqimiy asarlari nashrida ko'plab uchrashini ta'kidlash kerak. Shoirning manbalardan yangi aniqlangan diniy-tasavvufiy mavzudagi g'azal va muxammaslari mohiyatan diniy-tasavvufiy g'oyalarning badiiy talqiniga bag'ishlangan bo'lsa-da, shoir she'rlar mazmuniga zulm va bid'atning ofat manbai ekanligi, adolatni ulug'lash kabi fikrlarini singdirib yuborgan. Muqimiy haqida ma'lumot beruvchi ko'plab manbalar ijodkor shaxsiyati va dunyoqarashi haqida teranroq mulohaza yuritishga undaydi. Shu bois shoirning yangi topilgan ijod namunalarini tadqiq etish zarur. Muqimiy yashagan davr vatanimiz tarixida ko'plab ijtimoiy ziddiyatlarga boy bo'lган davrdir. Shu jihatdan, shoir adabiyestetik dunyosini, muhit va jamiyatga munosabatini o'rganishda uning yangi topilgan she'rlari tahlili ilmiy qimmatga ega⁴

Asosiy xulosalar shundan iboratki, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy o'z davrining ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy ahvolini ochib bergan. Biz avlodlar shu ijodlar orqali o'tmishimizni anglashimiz, o'tmishning asl kechinmalari haqida habardor bo'lishimiz mumkin. Muqimiyning hayot yo'liga keladigan bo'lsak, adolat tomon initlgan va shu asosda asarlar, satiralar yozgan. Muqimiy juda odmi hayot kechirgan adib hisoblanadi, hayotining so'nggi yillari kitoblardagi xatolarni to'g'irlash va ularni ko'chirish bilan o'tgan ekan. 1903-yilning 25-may kuni ellik uch yoshida vafot etgan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. <https://arboblar.uz/uz/people/mukimi>
2. <https://arboblar.uz/uz/people/mukimi>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqimiy>
4. Q. Pardayev Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili
5. Ғулом, Ғафур. 1942. Муқимий. Тошкент: Фан.

⁴